



HISTORY OF ADMINISTRATIVE-TERRITORIAL CHANGES IN THE SURKHANDARYO DISTRICT (REGION)

Islom Karshiyev

Doctoral student (DSc)

Termez State University

e-mail: qarshiyevislom96@gmail.com

Termez, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: Surkhandarya, uyezd, volost and village council, Denov, Sherobod, Mirshodi, Yurchi, administrative-territorial change.

Received: 02.12.25

Accepted: 03.12.25

Published: 04.12.25

Abstract: Studying the history of administrative-territorial changes in the Surkhandarya district (region) is of significant scientific and practical importance, not only for researching the region's history but also for identifying the stages in the formation of the modern territorial governance system. This article analyzes the administrative-territorial reforms carried out in Surkhandarya, as well as their content and essence.

SURXONDARYO OKRUGI (VILOYATI) DA MA'MURIY-HUDUDIY O'ZGARISHLAR TARIXI

Islom Qarshiyev

Termiz davlat universiteti doktoranti (DSc)

e-mail: qarshiyevislom96@gmail.com

Termiz, O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: Surxondaryo, uyezd, volost va qishloq soveti, Denov, Sherobod, Mirshodi, Yurchi, ma'muriy-hududiy o'zgarish.

Annatsiya: Surxondaryo okrugi (viloyati)da ma'muriy-hududiy o'zgarishlar tarixini o'rganish nafaqat mintaqa tarixini ilmiy o'rganish, balki bugungi hududiy boshqaruv tizimining shakllanish bosqichlarini aniqlashda ham muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega. Mazkur maqolada Surxondaryoda amalga oshirilgan ma'muriy-hududiy islohotlar, ularning mazmun-mohiyati tahlil qilinadi.

ИСТОРИЯ АДМИНИСТРАТИВНО-ТЕРРИТОРИАЛЬНЫХ ИЗМЕНЕНИЙ В СУРХАНДАРЬИНСКОМ ОКРУГЕ (ОБЛАСТИ)

Ислам Каршиев

Докторант (DSc)

Термезского государственного университета

e-mail: garshiyevislom96@gmail.com

Термез, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: Сурхандарья, уезд, волость и сельсовет, Денау, Шерабад, Миршоди, Юрчи, административно-территориальное изменение.

Аннотация: Изучение истории административно-территориальных изменений в Сурхандарьинском округе (области) имеет важное научно-практическое значение не только для научного исследования истории региона, но и для определения этапов формирования современной системы территориального управления. В данной статье анализируются проведённые в Сурхандарье административно-территориальные реформы, их содержание и сущность.

Kirish. Surxondaryo okrugi (viloyati) ning ma'muriy-hududiy tuzilishi XX asr davomida bir necha bor tubdan qayta tashkil etilgan bo'lib, bu jarayonlar hududning ijtimoiy-siyosiy hayoti, iqtisodiy rivoji hamda etnodemografik tarkibiga sezilarli ta'sir ko'rsatgan. Ayniqsa 1920–1940 yillarda Sovet hokimiyati tomonidan amalga oshirilgan rayonlashtirish siyosati mintaqaning hozirgi tumanlar tizimi, chegaralari va boshqaruv strukturasi shakllanishida asosiy bosqich bo'lib xizmat qildi.

Adabiyotlar tahlili va metodlar. Tadqiqotning manbashunoslik asosini XX asr boshlarida O'zbekiston hududida amalga oshirilgan ma'muriy-hududiy islohotlar jarayonini aks ettiruvchi rasmiy statistika nashrlari, hukumat qarorlari, matbuot materiallari hamda zamonaviy ilmiy tadqiqotlar tashkil etadi. Avvalo, Surxondaryo vohasining 1920–1930-yillarda shakllangan ma'muriy tuzilishini aniqlashda “Список населенных мест Узбекской ССР и Таджикской АССР. Выпуск VII: Сурхан-дарьинская область” kabi statistik to'plamlar okrugning tashkil etilishi, uning tarkibidagi uyezd, volost va qishloq sovetlarining soni, aholi punktlarining joylashuvi, xo'jaliklar va aholi miqdori haqidagi eng muhim rasmiy ma'lumotlarni taqdim etadi. Ushbu to'plamlar rayonlashtirish jarayonini aniq faktlar bilan asoslashda asosiy empirik manba vazifasini bajaradi.

1920-yillar o'rtalaridagi rayonlashtirish siyosati jarayonlarini yoritishda “О районирование” nomli maqola va “Материалы по районированию Узбекистана. Выпуск I”

kabi huquqiy-normativ to'plamlarda aks etgan bo'lib, ular ma'muriy-hududiy bo'linishning huquqiy asoslarini o'rganishda birlamchi manba hisoblanadi.

Mazkur davr o'zgarishlarini yoritishda "Правда Востока" gazetasi sahifalarida e'lon qilingan 1925 va 1926-yillardagi maqolalar ham katta ahamiyatga ega. Jumladan, 1926-yil 18-oktabrdagi nashr rayonlashtirish loyihasining qabul qilinishi, okrug markazi masalasidagi bahslar va yangi tumanlar bo'yicha rasmiy e'lonlarni yoritadi.

Zamonaviy ilmiy tadqiqotlardan O.M.Normatovning "O'rta Osiyoda o'tkazilgan rayonlashtirish siyosatining O'zbekiston ijtimoiy-iqtisodiy hayotiga ta'siri" monografiyasi rayonlashtirish jarayonining nazariy-amaliy tomonlarini, uning iqtisodiy va ijtimoiy oqibatlarini chuqur tahlil qiladi.

Muhokama. O'zbekiston SSR Markaziy Revkomi 1925-yil 13-yanvarda bo'lgan majlisida O'zbekistonni ma'muriy jihatdan ajratish masalasini ko'rib chiqdi va unga muvofiq Turkiston ASSR oblastlar, uyezdlar, volostlar va qishloq sovetlariga (selsovetlarga), Buxoro Respublikasi viloyatlar (keyinchalik okruglar), tumanlar, kentlar, aminliklar va qishloq oqsoqolliklariga, Xorazm Respublikasi oblastlar, tumanlar, sho'rolar va oqsoqolliklariga bo'lingan edi.

Uyezd (ruscha: уезд) – bu asosan Rossiya imperiyasi va Sovet Ittifoqining dastlabki davrlarida qo'llanilgan katta ma'muriy-hududiy birlikning nomi. Uyezd tarixan o'rta asrlardagi Rus davlatidan boshlab qo'llanilgan ma'muriy tuman bo'lib, hozirgi kunda taxminan okrug yoki katta tuman tushunchasiga to'g'ri keladi.

Okrug – "atrof", "aylana" yoki "doira" degan ma'nolarni anglatib, ma'muriy kontekstda katta hududiy birlik yoki viloyat yoki o'lkaga teng ma'muriy-hududiy birlik.

Volost (ruscha: волост) – uyezd tarkibiga kirgan quyi ma'muriy-hududiy bo'linma. Turkistonda bo'lis, vo'lis deb yuritilgan.

Tuman – O'rta asrlardan ma'lum bo'lgan Markaziy Osiyo mamlakatlaridagi ma'muriy-hududiy birlikning nomi; uyezd ma'nolarida ishlatilgan. O'zbekiston sobiq Sovet Ittifoqi tarkibiga kirgan davrda tumanlar "rayon" deb atalgan.

Selsovet (ruscha: сельсовет) – bu sovetlar davrida qishloq joylaridagi eng quyi darajadagi davlat hokimiyati organining nomi. U qishloq soveti, ya'ni saylanma organ bo'lgan va qishloq ma'muriy bo'linmasining ishlari uchun javobgar edi. "Selsovet" so'zi "сельсовет" so'zining qisqartmasi bo'lib, rus tilida "qishloq soveti" degan ma'noni bildiradi.

O'zbekiston SSR Markaziy Revkomi Prezidiumi 1925-yil 29-yanvarda butun O'zbekiston bo'yicha ma'muriy bo'linishning bir xil tizimini joriy qilinishiga asos solgan dastlabki qarorni qabul qildi. Ushbu qarorga ko'ra, Surxondaryo oblasti tashkil etilgan va u uchta asosiy uyezddan iborat bo'lgan: Boysun uyezdi, Sherobod uyezdi va Yurchi uyezdi. Oblast jami 10 ta volostni birlashtirgan. Oblastda jami 24,518 ta xo'jalik va 127,743 nafar aholi qayd etilgan.

1. Boysun uyezdi 3 ta volostni (Boysun, Derbant, Qumqo'rgan) o'z ichiga olgan bo'lib, jami 89 ta aholi punkti mavjud. Har bir volostga o'rtacha 29,6 tadan aholi punkti to'g'ri kelgan.

2. Sherobod uyezdi 4 ta volost (Poshxurd, Jarqo'rg'on, Termiz, Sherobod) va 114 ta aholi punktiga ega bo'lgan. Bu uyezdga har bir volostga o'rtacha 28,5 tadan aholi punkti to'g'ri kelgan.

3. Yurchi uyezdi 3 ta volost (Mirshodi, Sariosiy, Yurchi) 240 ta ta aholi punktiga ega bo'lgan. Yurchi uyezdida har bir volostga o'rtacha 80 tadan aholi punkti to'g'ri kelgan[1].

O'zbekiston SSR Sovetlari MIK Prezidiumining 1926-yil 11-iyundagi qarori asosida O'zbekiston SSRni rayonlashtirish bo'yicha Markaziy, oblast, uyezd va rayon komissiyalari faoliyati to'g'risida Nizom qabul qilindi.

1926-yil 25–29 sentyabrda Samarqandda O'zbekiston SSR Sovetlari Markaziy Ijroiya Qo'mitasining V sessiyasi bo'lib, unda rayonlashtirish loyihasi ko'rib chiqildi va tasdiqladi. Sessiyaning birinchi majlisida rayonlashtirish loyihasi ko'rib chiqildi va loyihadagi munozarali masalalardan biri sifatida Surxondaryo okrugining markazi sifatida Sherobod emas Qumqo'rg'onning ko'rsatilishini aytishimiz mumkin.

Rayonlashtirish haqidagi qarorining asosiy oxirgi loyihasi tayyorlanib, V sessiya 1926-yil 29-sentyabr kuni rayonlashtirish to'g'risida tarixiy qaror qabul qildi. Bu qaror 1926-yil 18-oktyabrda «Qizil O'zbekiston» va «Pravda Vostoka» gazetalarida bosildi [2]. Bu qarorga ko'ra, O'zbekiston SSRda ma'muriy-iqtisodiy rayonlashtirish amalga oshirildi hamda viloyatlar, uyezdlar va volostlar tugatildi[3]. Ayni vaqtda Surxondaryo okrugi tashkil etilgan edi. Markazi Sherobod shahri bo'lgan okrug 6 ta rayondan iborat [4].

Okrug bo'yicha shahar va shahar tipidagi manzillarga quyidagilar kirgan: Sherobod, Boysun, Darband, Termiz, Yurchi va Sariosiyo.

Sariosiyo tumanida 22 ta qishloq sovetlari joylashgan: Gazarak, Dashnabod, Jkan-cheka, Duoba, Zagnobod, Quydi-juvas, Kishtut, Malyand, Nilu, Sangardak, Sariosiya, Sufiyon, Tortuvli, Tilpak-chinar, Toqchiyon, Tomchi, Tilgoran, Uzun, Xondjiza, Xufar, Xorvata, Shatrud.

Boysun tumanida 22 ta qishloq sovetlari joylashgan: Boysun, Bandixon, Dashtigiaz, Derbant, Duoba, Qayroq, Qo'rg'oncha, Kofirun, Qizilnavr, Munchoq, Novbuloq, Padang, Posurxi, Pulhokim, Rabot, Sayrob, O'rtamachay, Xalqajar, Xovuz, Xojabulg'on, Shaid, Sho'rob.

Denov tumanida 33 ta qishloq sovetlari joylashgan: Oqtumshuq, Allatimir, Ambarsoy, Beshkapa, Vaxshivor, Denov, Jinnibuloq, Jigidabuloq, Jobu, Zardako'l, Ipoq, Qorako'z, Qorovultepa, Qarluq, Katta Qarshi, Kaftarxona, Kenagas, Qo'ldosh, Kultepa, Mirshodi, Payzava, Sina, To'ngiztepa, Tortuvli, Ulyamqul, Ushor, Xayrobod, Xojasoat, Xidirsho, Chuqtosh, Sho'rchi, Yurchi, Yangibozor.

Sherobod tumanida 29 ta qishloq sovetlari joylashgan: Ayni, Pashxurd, G'ambur, Gilambob, G'o'rin, Jortiariq, Zarabog', Istara, Kallamozor, Kampirtepa, Qorabog', Qishloqbozor, Qizilolma,

Qizilboy, Laylagon, Rabatak, Talashqon, Tallimaron, Xomkon, Xatak, Xojanqo, Xojaqiya, Xojaulqon, Xudjgi, Chorvoqkoriz, Chuqurko‘l, Sherobod, Sherjon, Yangiariq.

Jarqo‘rg‘on tumanida 14 ta qishloq sovetlari joylashgan: Oqqo‘rg‘on, Oqtepa, Angor, Bozor-Kakaydi, Jarqo‘rg‘on, Jaloyir, Zang, Ismoiltepa, Kuleqo‘rg‘on, Minor, Novshahar, To‘pqora, Xo‘jamiliq.

Pattakesar tumanida 11 ta qishloq sovetlari joylashgan: Boldir, Garma, Manguzar, Oktyabrskiy, Pattakesar, Sassiqlik, Uchtut, F.Xo‘jayev, Xoshman, Sho‘rob, Yangiariq [5].

1938-yil 15-yanvarda O‘zbekiston SSR tarkibida Buxoro viloyati tarkibida Surxondaryo okrugi tuzildi[6]. 1938-yil 1-oktyabrdagi ma‘lumotlarga ko‘ra Buxoro viloyati tarkibida Surxondaryo okrugining ma‘muriy-hududiy bo‘linishi quyidagicha ko‘rinishga ega bo‘lgan[7]: Boysun, Denov, Jarqo‘rg‘on, Sariosiyo, Termiz, Sherobod, Sho‘rchi, Termiz sh.

1941-yil 6-martda Buxoro viloyati tarkibidan esa Surxondaryo okrugi ajratib olinib, Surxondaryo viloyati tashkil etildi. Buning natijasida 1947-yilning 1-yanvarida Surxondaryo viloyatining ma‘muriy-hududiy bo‘linishi quyidagi ko‘rinishga keldi[8]: Boysun, Denov, Jarqo‘rg‘on, Sariosiyo, Termiz, Uzun, Sherobod, Sho‘rchi, Termiz sh.

Boysun tumani – 1926-yil 29-sentabrda tashkil etilgan (1962-yil 24-dekabrda Sherobod tumani bilan birlashtirilgan. 1965-yil 29-dekabrda qayta tuzildi). Boysun tumani viloyatning g‘arbida joylashgan. Shimoli-sharqda Sariosiyo, sharqda Qumqo‘rg‘on, janubda Qiziriq, Bandixon tumanlari, janubi-g‘arbda Sherobod tumani bilan, shimoli-g‘arbda Qashqadaryo viloyatining Qamashi va g‘arbda Dehqonobod tumanlari bilan chegaradosh.

Denov tumani – 1926-yil 2-sentabrda tashkil etilgan. Denov tumani viloyatning Sho‘rchi, Sariosiyo, Uzun, Oltinsoy tumanlari bilan chegaradosh.

Sariosiyo tumani – 1926-yil 29-sentabrda tashkil etilgan. 1959-yildan Denov, 1962-yildan Uzun tumanlari tarkibida, 1964-yil 22-fevraldan Sariosiyo tumani nomi bilan qaytadan tuzilgan. Janubi-sharqdan Uzun, janubi-g‘arbdan Boysun, janubdan Denov, Qumqo‘rg‘on tumanlari, shimol va sharqdan Tojikiston Respublikasi, shimoli-g‘arb va g‘arbdan Qashqadaryo viloyati bilan chegaradosh.

Jarqo‘rg‘on tumani – Surxondaryo viloyatidagi tuman. 1926-yil 29-sentyabrda tashkil etilgan (1962-yil 24-dekabrda Sho‘rchi tumani bilan birlashtirilgan, 1964-yil 31-dekabrda qayta tuzilgan). Shimolda viloyatning Qiziriq va Bandixon tumanlari, sharqda Qumqo‘rg‘on tumani, janubi-g‘arbda Termiz va Angor tumanlari, sharqda Tojikiston Respublikasi bilan chegaradosh.

Termiz tumani – 1926-yil 29-sentabrda tashkil etilgan. Janubiy va g‘arbdan Afg‘oniston, sharqdan Tojikiston, shimolidan viloyatning Angor va Jarqo‘rg‘on, shimoli-g‘arbdan Muzrabot tumanlari bilan chegaradosh.

Uzun tumani – 1942-yil 12-yanvarda tashkil etilgan. 1959-yil 15-oktabrda Sariosiyo tumaniga qo‘shib yuborilgan, 1991-yil 29-martda qayta tuzildi. Uzun tumani shimoli-g‘arbdan Sariosiyo tumani, sharq, janub, shimoldan Tojikiston, janubi-g‘arbdan Qumqo‘rg‘on, g‘arbdan Denov, Sho‘rchi tumanlari bilan chegaradosh.

Sherobod tumani – 1926-yil 29-sentyabrda tashkil etilgan. Tuman shimoldan Boysun, shimoli-sharqdan Bandixon, sharqdan Qiziriq, janubdan Muzrabot, janubi-sharqdan Angor tumanlari, shimoli-g‘arbdan Qashqadaryo viloyati, g‘arbdan Turkmaniston bilan chegaradosh.

Sho‘rchi tumani – 1935-yil 9-fevralda tashkil etilgan. Shimoldan Oltinsoy, Denov, janub va g‘arbdan Qumqo‘rg‘on, sharqdan Uzun tumanlari bilan chegaradosh.

Xulosa. XX asrning birinchi yarmi Surxondaryo hududi uchun tub ma‘muriy-hududiy o‘zgarishlar davri bo‘lib, ushbu jarayonlar mintaqaning ijtimoiy-iqtisodiy va etnodemografik rivojiga sezilarli ta‘sir ko‘rsatdi. Rayonlashtirish siyosatining bosqichma-bosqich amalga oshirilishi, tumanlar chegarasining aniqlanishi, yangi ma‘muriy markazlarning tashkil etilishi va ayrim hududlarning qayta tasnif qilinishi, bir tomondan, davlat boshqaruvini markazlashtirishga xizmat qilgan bo‘lsa, ikkinchi tomondan, mahalliy aholi turmush tarzining, xo‘jalik yuritish shakllarining va hududiy identifikatsiyaning o‘zgarishiga sabab bo‘ldi.

Umuman olganda, mavzuni o‘rganish nafaqat tarixiy jarayonlarni rekonstruksiya qilish, balki bugungi ma‘muriy-hududiy siyosat, mintaqaviy rivojlanish strategiyalari va etnodemografik jarayonlarni tahlil qilish uchun ham ilmiy va amaliy ahamiyat kasb etadi. Shu sababli Surxondaryo hududining ma‘muriy-hududiy shakllanish tarixini izchil yoritish dolzarb ilmiy yo‘nalish bo‘lib qolmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Список населенных мест Узбекской ССР и Таджикской АССР. Выпуск VII: Сурхан-дарьинская область. Издание Ц. С. У. Уз. ССР. Самарканд, 1925.
2. О районирование // «Правда Востока», 18 октября 1926 г
3. Материалы по районированию Узбекистана. Выпуск I. – С. 168.
4. «Правда Востока» 18 октября 1925 г.; Собрание Узбекской и распоряжений рабочего и дехканского правительства Узбекской ССР. – Самарканд – Ташкент, 1926. №35–36. – С. 150; Ражабов К., Қандов Б., Ражабова С. Ўзбекистон тарихининг муҳим саналари. 6-нашри. – Б. 191–195.
5. Список населенных пунктов Узбекской ССР 1928 года. Часть IX: Округ Сурхан-дарья. Издание ЦСУ УзССР. г. Самарканд, 1929 г.
6. Д. В. Заяц Изменение административно-территориального деления союзных республик: газета. - 2001. - № 28.

7. СССР. Административно-территориальное деление союзных республик на 1 октября 1938 года, 50000 экз, "Власть Советов", 1938.

8. СССР. Административно-территориальное деление союзных республик на 1 января 1947 года, 75 000 экз, "Известия Советов депутатов трудящихся СССР", 1947.